

IJODIY PARVOZ



2024-yil avgust № 8 (135) dsmi.uz nashriyot@dsmi.uz t.me/dsmi_uz

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN‘AT VA MADANIYAT INSTITUTINING MA‘NAVIY-MA‘RIFIY, ILMIY, IJTIMOY GAZETASI



NODIRBEK SAYFULLAYEV,
O‘ZDSMI REKTORI,
PROFESSOR

IMKONIYAT VA NATIJA UYG‘UNLIGI

san‘at va madaniyat sohasi timsolida

Dunyo tarixiga nazar tashlar ekanmiz, ma‘naviyat va ma‘rifat, xususan, adabiyot va san‘atning rivoji bevosita boshqa sohalarning, umuman olganda, davlat va jamiyatning taraqqiyotiga bevosita ta‘sir etishiga guvohi bo‘lamiz. Negaki, adabiyot va san‘at o‘z oldiga axloqiy, ruhiy va jismoniy tomondan yetuk bo‘lgan komil shaxsni tarbiyalashni maqsad qiladi. O‘z navbatida bunday fazilatga ega bo‘lgan inson qaysi sohada faoliyat olib bormasin, iqtidori orqali jamiyat taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘shishi, shubhasizdir.

2023-yil 22-dekabr kuni bo‘lib o‘tgan Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat Kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida muhtaram Prezidentimiz: *“Bugun ma‘naviyat boshqa sohalardan o‘n qadam oldinda yurishi, ma‘naviyat yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi kerak”*, – deya bu sohalarning ahamiyatini ko‘rsatib bergan edilar.

Shu ma‘noda, bugungi kunda jahonga yangicha qarash, ochiqlik va oshkoralik tamoyillarini sarbaland tutgan holda yuzlanayotgan Yangi O‘zbekistonning san‘ati va madaniyati ham tarixiy an‘analar va zamonaviy qarashlar uyg‘unligida shakllanib, yangi rivojlanish bosqichiga chiqib bormoqda. Ushbu jarayonda davlatimiz rahbari tomonidan mazkur sohalarning rivojiga berilayotgan e‘tibor va g‘amxo‘rlikni alohida e‘tirof etish o‘rinli.

Davomi 2-betda

Tabrik

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining o‘ttiz uch yilligi munosabati bilan fan, ta‘lim, sog‘liqni saqlash, sport, adabiyot, madaniyat, san‘at sohalari va ommaviy axborot vositalari xodimlaridan bir guruhini mukofotlash to‘g‘risida”gi Farmoni bilan bir qancha yurtdoshlarimiz yuksak mukofotlar bilan taqdirlandilar.

Quvonarli tomoni, ular orasida O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat institutining fidoiy xodimlari ham bor.

O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston xalq artisti, institutning Milliy qo‘shiqchilik kafedrası professori Xayrulla LUTFULLAYEV – “O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA XIZMAT KO‘RSATGAN YOSHLAR MURABBIYSI” faxriy unvoni bilan, Cholg‘u ijrochiligi va musiqiy-nazariy fanlar kafedrası professori O‘rozali TOSHMATOV – II DARAJALI “SOG‘LOM AVLOD UCHUN” ordeni bilan hamda institutning Farg‘ona mintaqaviy filiali Teatr san‘ati kafedrası professori Shamsiddin USMONOV – “SHUHRAT” medali bilan taqdirlandi.

Bugun uzoq yillik mehnatlari samarasini ko‘rayotgan barcha mukofot sohiblari qatorida ushbu hamkasb ustozlarimizni yuksak e‘tirof bilan chin yurakdan samimiy muborakbod etamiz.



O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 33 yilligi barchamizga muborak bo‘lsin!



Mustaqillik – katta imkoniyat va ulkan mas‘uliyatdir



O‘ZBEK TEATRINING IJTIMOYIY-MADANIY JARAYONLARDAGI O‘RNI



RAJAB AKA KINO UCHUN TUG‘ILGAN



ZOMIN ILHOMLARI



TABIAT





IMKONIYAT VA NATIJA UYG'UNLIGI san'at va madaniyat sohasi timsolida

◀ Boshlanishi 1- betda

Mustaqil O'zbekiston tarixida ilk bor 2021-yil 23-yanvarda O'zbekiston Respublikasining "Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonuni qabul qilinib, madaniyat va san'at muassasalari, ijodiy uyushma va birlashmalarning huquqiy maqomi belgilandi, ijodkorlarni ijtimoiy himoya qilishga qaratilgan yagona huquqiy baza yaratildi. Bundan tashqari, Prezidentimizning sohaga oid 60ga yaqin farmon va qarorlari, hukumatning 150dan ortiq qaror va farmoyishlari qabul qilindi. Natijada soha moddiy va huquqiy jihatdan yanada takomillashdi.

Mamlakatimizda 15-aprel sanasini Madaniyat va san'at xodimlari kuni etib belgilanishi ham tarixiy hodisa bo'ldi. Shuningdek, o'tgan 8 yil davomida "Bahor" raqs ansambli, Davlat filarmoniyasi, Davlat simfonik orkestri kabi 20 dan ortiq muassasalar faoliyati yo'lga qo'yildi. 11 ta yangi muzey, 2 ta teatr, 28 ta bolalar musiqa va san'at maktabi tashkil etildi. 2022-2023-yillar davomida Qoraqalpog'iston Respublikasi va Surxondaryo viloyatida baxshichilik san'ati milliy ekspozitsiyalari tashkil etilib, mazkur san'at kuriga tegishli bo'lgan 500 ga yaqin qadimiy eksponatlar va boshqa ma'lumotlar joylashtirildi.

Yurtimizda muntazam ravishda *Xalqaro maqom san'ati anjumani*, *Xalqaro baxshichilik san'ati*, *"Sharq taronalari" xalqaro musiqa*, *"Lazgi" xalqaro raqs* kabi ko'plab nufuzli festivallar tashkil etilib, ushbu san'at durdonalari butun dunyo e'tibori va e'tirofiga sazovor bo'lib kelmoqda. Ushbu tadbirlarda, o'zbek san'atkorlari, ayniqsa, yosh ijodkorlar o'z mahoratlarini jahon darajasida namoyon qilib, o'zbek san'atini yanada yuksaltirmoqdalar. Shuningdek, boshqa yurt vakillarining ham san'atidan bahramand bo'lib, tajriba o'rtirishmoqda.

Ma'lumki, har qanday sohaning taraqqiy etishida uning moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlanishi va soha xodimlariga yaratilayotgan shart-sharoitlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shuni inobatga olgan holda, 2023-yilda birgina madaniyat va san'at sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash hajmi 2017-yilga nisbatan besh karra oshdi.

Ayni paytda yurtimizda madaniy-ma'rifiy sohaning moddiy ta'minotiga ko'mak berayotgan, turli ko'ngilochar muassasalar, kutubxonalar, ilm-fan va ijodga ixtisoslashgan ko'plab to'garaklar tashkil etayotgan vatandoshlarimiz tobora ko'payib borayotganligini qayd etish lozim. Bunday metssenatlar, shubhasiz, ma'rifatli davlat qurish, jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy barqarorlik muhitini yaratishga munosib hissa qo'shishmoqda. Milliy an'ana va qadriyatlarimizni avaylab-asrash va boyitish maqsadida Maqom, Baxshichilik va Askiya san'ati markazlari tashkil etildi. Ushbu jarayonlar orqali xalqimiz turmush tarzining ajralmas bo'lagiga aylangan bu kabi umriboqiy san'at turlarining yanada ommalashishi uchun zamin yaratilmoqda.

Bugungi kunda yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi, shubhasiz, inson qadriini ulug'lashga qaratilgan. Ushbu g'oyaning san'atdagi tarannumi esa uning ta'sirchanligini yanada oshiradi. Aynan mazkur ezgu g'oya asosida har yil 40 ta yangi spektakl, 40 ta yangi musiqa asarlari, 100 ta yuksak badiiy saviyadagi internet va ijtimoiy tarmoqlar uchun mo'ljallangan audiovizual asarlar yaratish, milliy kuylardan iborat musiqiy albomlarni tayyorlash va ommalashtirish ishlariga hamda atoqli ijodkorlarning ijodiy uchrashuvlarini tashkil etishga davlat buyurtmasi berilmoqda. O'z-o'zidan bu

o'zgarishlar bir tomondan yurtdoshlarimizni sifatli san'at asarlari bilan xushnud etsa, ikkinchi tomondan sohaning yanada rivoji, eng muhimi, ko'plab ish o'rinlari yaratilishi, ijodkorlarning yanada qo'llab-quvvatlanishi uchun ko'plab imkoniyatlar taqdim etadi.

Yurtimizning barcha hududlarida istiqomat qilayotgan insonlar uchun aniq belgilangan reja asosida "Madaniyat karvoni" shaklida konsert-tomosha tadbirlari va teatr jamoalarining gastrollari tashkil etilmoqda. Natijada yurtimizdagi har bir hudud, har bir xonadonga san'at bilvosita internet, televideniye va radio orqali emas, balki bevosita jonli tarzda kirib borishiga zamin yaratildi. Bu jarayon yurtimiz madaniyati va san'ati tarixiy rivojlanish bosqichida ekanligidan dalolat beradi. Jamiyat taraqqiyotiga, kishilar ijtimoiy ongiga, pirovard natijada insoniyat taqdiriga madaniyat kabi kuchli ta'sir etuvchi omil bo'lmas kerak. Chunki madaniyat insonning intellektual va ruhiy holatini tartibga keltiruvchi, uni jamiyat ijtimoiy va madaniy hayotidagi faoliyatini muvofiqlashtiruvchi muhim hodisa hisoblanadi.

Jamiyat rivojlanib borar ekan, madaniyat va san'atning o'rni va roli ham shunga mos ravishda oshib boraveradi. Bugun muhtaram yurtboshimiz rahnamoliklari ostida Yangi O'zbekistonda ma'rifatli davlat barpo etmoqdamiz. Bunday davlatning poydevori esa, hech shubhasiz, madaniyat va ma'rifat, shuningdek, san'at bilangina mustahkam bo'lishi mumkin. Bu islohot va yangilanishlardan asosiy maqsad ham Uchinchi Renessans poydevorini mustahkamlash va ma'rifatli davlat barpo etishdir.

Madaniyat va san'at, xususan, teatr tomoshasi, kino mahsulotlari, kuy-qo'shiqlar har birimizning ruhiyatimiz va kayfiyatimizga ta'sir etadi. Masalan, teatrning asosiy vazifasi bu, insonlarni larzaga solish orqali poklash, ya'ni katarsisdir. Jadid bobomiz Mahmudxo'ja Behbudiy bejiz *"Teatr ibratxonadur"*, deb aytmagan. Demak, san'atning ta'sir kuchi va ko'lami juda keng. U, avvalo, inson ruhiyatini tarbiyalaydi.

Bugun Yangi O'zbekistonning jahondagi salobati-yu salohiyatiga monand yangi san'ati va madaniyatini yaratish, ayniqsa, yosh iste'dod egalarini kashf etishda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining ham alohida o'rni bor. Zero, ushbu ta'lim dargohi yurtimizda aktyorlik, rejissyorlik, kinoteleoperatorlik, san'atshunoslik, folklor ijrochiligi, milliy qo'shiqchilik, xalq cholg'ulari ijrochiligi, madaniyatshunoslik, kutubxonashunoslik, madaniyat va san'at menejmenti ta'lim yo'nalishlarida yuqori malakali kadrlar tayyorlovchi yetakchi oliy ta'lim muassasasidir. Bu yerda o'z ijodiy va ilmiy faoliyati bilan nafaqat yurtimiz, balki jahon san'ati rivojiga munosib hissa qo'shgan ustoz san'atkorlar va yosh umidli professor-o'qituvchilar talabalarga san'at sirlaridan saboq berib kelmoqdalar.

2023-2024-o'quv yilida respublika va xalqaro darajada o'tkazilgan fan olimpiadalari, festivallari va ko'rik-tanlovlarda institutda tahsil olayotgan 40 dan ziyod talaba g'oliblikni qo'lga kiritgan bo'lsa, 50 dan oshig'i faxrli o'rinlarga ega bo'ldi. Xususan, bir nafar iqtidorli talaba O'zbekiston Respublikasi Prezidenti stipendiyasiga, yana bir talaba Islom Karimov nomidagi davlat stipendiyasiga, ikki nafar talaba esa, Navoiy nomidagi davlat stipendiyasiga sazovor bo'ldi. Yana bir iqtidor egasi Kino, televideniye va radio san'ati fakulteti, Kinoteleoperatorlik ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi Azizbek Sobirov "Mard o'g'lon" Davlat mukofoti bilan taqdirlandi.

Bo'lg'usi ijodkorning institutga birinchi qadami, albatta, kirish imtihonlarida qo'yiladi. Shuni inobatga olgan holda, 2024/2025-o'quv yili qabulida institut jamoasi ushbu jarayonni adolatli va shaffof o'tishi uchun barcha choralarni ko'rdi. Imtihon o'tkazish uchun mo'ljallangan auditoriyalar ta'mirlanib, zaruriy jihozlar bilan ta'minlandi. Kasbiy-ijodiy imtihonlar institutning rasmiy veb-saytida onlayn tarzda namoyish etildi. Abituriyentlarning ota-onalari va yaqinlari uchun alohida joy ajratilib, jarayonni kuzatib borishlari uchun barcha sharoitlar yaratildi.

Abituriyentlarning ijodiy, amaliy ishlarini baholashga komissiya raisi sifatida tanikli san'atshunos olimlar, faxriy unvonga ega bo'lgan mashhur teatr va kino rejissyorlari, aktyorlar, xonandalar, sozandalar kinoteleoperatorlar jalb etildi. Imtihon natijalari shu kunning o'zida institutning veb-sayti orqali e'lon qilib borildi. Eng asosiysi, qabul jarayonlarida korrupsiya, tanish-bilishchilik kabi salbiy holatlar kuzatilmaligi uchun institut tomonidan tegishli vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda barcha zaruriy choralar ko'rildi.

Sir emaski, har qanday sohada zamon bilan hamnafas bo'lish, jamiyat ehtiyojlariga javob bera olish muhim ahamiyat kasb etadi. San'at va madaniyat sohasi ham bugun tinimsiz rivojlanib, yangilanib bormoqda. Ushbu ehtiyoj va talablarni inobatga olib, joriy o'quv yilida institutda San'at jurnalistikasi, Turizm va mehmondo'stlik, Inson resurslarini boshqarish kabi yangi yo'nalishlar ochildi.

Barcha sohalar rivoji uchun xalqaro hamkorlik aloqalarini chuqurlashtirish va kengaytirish muhim ahamiyatga ega. Xuddi shunday san'at va madaniyat ham milliy va umumbashariy qadriyatlarga tayanadi va xalqaro aloqalarga ehtiyoj sezadi. Muhtaram yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek: *"Zero, hamkorlik, savdo, ijod, ilm-fan va san'at, insoniy g'oyalar ustuvor bo'lgan joyda ezguliklar ko'payadi, xalqlar farovon va o'zaro ahil yashaydi"*.

Bugungi kunga kelib, institutning Buyuk Britaniya, Fransiya, Rossiya, Xitoy, Turkiya, Koreya Respublikasi, Gruziya, Ozarbayjon, Belorussiya, Qozog'iston, Tojikiston kabi mamlakatlarning 60 dan ortiq oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik shartnomalari, kelishuv memorandumlari mavjud. Xususan, Rossiya teatr san'ati instituti, Qozon davlat madaniyat instituti, Sankt-Peterburg kino-televideniye instituti va boshqalarni misol keltirish mumkin.

Hozirgi kunda Koreya Respublikasi hamda Qozog'iston Respublikasidan professor-o'qituvchilar institutda faoliyat olib borib, talabalarga ta'lim berish barobarida, o'z mamlakatlari tajribalari bilan ham o'rtoqlashmoqda. Shuningdek, institutning ilmiy salohiyatini yuksaltirish, soha bo'yicha tadqiqotlarni yanada jadallashtirish borasida ham bir qancha ishlar amalga oshirildi. Oliy ta'lim muassasasi huzurida san'atshunoslik fanlari bo'yicha ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash faoliyat olib bormoqda.

Institutda asosiy e'tibor ijodiy yo'nalishlarga qaratilgan bo'lsa-da, pedagog kadrlarning o'z soha muammolari, dolzarb masalalar hamda ilmiy-ijodiy taklif, mulohazalari aks etgan maqola, tezislari muntazam ravishda respublika va xorijiy nashrlarda e'lon qilib kelinmoqda. Google Scholar tizimida institut professor-o'qituvchilarining xalqaro ilmiy nashrlariga iqtiboslik darajasi yildan yilga o'sib borayotganligini kuzatish mumkin. Shu bilan birga, bu boradagi ishlarni yanada

jadallashtirish, institut ilmiy salohiyatini yanada oshirish yuzasidan kelgusida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar ham belgilab olindi. Zeroki, har qanday sohaning taraqqiyoti uning ilmiy-nazariy asosining mustahkamligi bilan ham chambarchas bog'liqdir.

Umuman olganda, institutda yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlarda munosib faoliyat yuritish, ushbu islohotlarni yurakdan his eta oladigan, ularni ijodiy orqali tarannum eta oladigan yosh ijodkor kadrlarni tarbiyalash har bir xodimning maqsadiga aylangan, desak yangilishmaymiz. Bu maqsadlarni amalga oshirish, institutni nafaqat yurtimiz, balki jahon darajasidagi nufuzli oliy ta'lim muassasalari qatoriga kiritish uchun kelgusida amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar ham belgilab olindi. Jumladan, sohaga oid yetakchi xorijiy ilmiy-tadqiqot va ta'lim muassasalari bilan hamkorlik aloqalarini rivojlantirish orqali har yil professor-o'qituvchilarning 10-15 foizini xorijda stajirovka o'tash va malaka oshirishlarini ta'minlash rejalashtirilmoqda. Kelgusida fan va ishlab chiqarish integratsiyasini chuqurlashtirish, yoshlarning ilmiy faoliyatga qiziqishlarini oshirish va rag'batlantirish maqsadida dissertatsiya himoyasi binar (ikkitalik) himoya tizimi asosida o'tkaziladi.

"Ijodiy parvoz" media markazi, maxsus ovoz yozish hamda animatsion multfilmlar yaratish uchun maxsus o'quv laboratoriyasi, badiiy-dekorativ jihozlar ishlab chiqarishga mo'ljallangan ustaxona tashkil etish, aynan san'at va madaniyat sohasi talablari asosida IT yo'nalishidagi kadrlar tayyorlash rejalashtirilmoqda. Bularni amalga oshirish orqali yana bir muhim vazifa – milliy kontent yaratish jarayoni ham yo'lga qo'yilmoqda.

Bundan tashqari iqtidorli yoshlarni izlab topish va rag'batlantirish, shuningdek, ularni jahon sahnalariga olib chiqish, ijrochilik mahoratlarini yanada oshirish uchun har ikki yilda bir marotaba talabalar o'rtasida Xalqaro teatr, musiqa, raqs va folklor san'ati tanlovlari o'tkazish maqsad qilingan. Bularni hayotga tatbiq etish talabalarining o'z ijodiy yo'nalishini topishlari va yetuk ijodkor kadr bo'lib shakllanishlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Tom ma'noda inson kamoloti uchun qayg'urgan, adolatli jamiyat barpo etishni maqsad qilib qo'ygan har qanday davlatda madaniyatga katta umid bilan qaralgan. Birinchi va Ikkinchi Renessans davrlarida ilm-fanning rivoj topishi, ijtimoiy hayotning jonlanishi, adolat tamoyillarining o'rnatilishi jamiyatda madaniyat va san'atga alohida o'rin berilgani bilan izohlanadi.

O'zbek san'ati va madaniyatida, hattoki, uning tarkibidagi bitta sohada ro'y berayotgan salmoqli o'zgarishlarni, xususan, davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan tashabbuslar va ular natijasida yaratilayotgan ulkan imkoniyatlarni bitta maqolada qamrab olish mushkul. Zeroki, so'nggi sakkiz yil mobaynida umumbashariy va milliy an'analarni birlashtirgan, xalqimizning orzu-umidlarini mujassam etgan Yangi O'zbekistonning yangi madaniyati va san'ati shakllanib bormoqda. Bugun yurtimizda amalga oshirilayotgan har bir o'zgarish va yangilanish, xalqimizning xohish-istaklari asosida amalga oshirilmoqda. Jumladan, san'at va madaniyat sohasida bo'layotgan bugungi jarayonlar ham aynan xalqimizning ehtiyoji va talabi mahsulidir.

Bir so'z bilan aytganda, san'at va madaniyat bugun yanada ommalashib, Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarga hamohang tarzda rivoj topib, ushbu islohotlarning mazmun-mohiyatini xalqimizga teranroq yetib borishi uchun xizmat qiluvchi muhim bo'g'inga aylanmoqda.

Mustaqillik —

katta imkoniyat va ulkan mas'uliyatdir

Jonajon Vatanimiz o'zining davlat mustaqilligini qo'lga kiritgani va mustaqil taraqqiyot yo'lini boshlaganiga 33 yil to'ldi. Istiqlol tufayli xalqimiz qadr-qimmatini anglab, munosib hayot kechirishi, yurtimizda huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarida yangilanish, fan va madaniyat, axborot-texnologiyalari, sport, turizm, qishloq xo'jaligi taraqqiyoti, meditsina, televediniya, radio kabi sohalariga katta imkoniyatlar yaratildi.

E'tirof etish joizki, mustaqillikni qo'lga kiritishimizda ota-bobolarimiz, ajdodlarimizning qo'shgan hissalarini, mehnatlarini katta. Ularning jasoratlarini tahsinga sazovor. Bu yo'lga ajdodlarimizning siyosiy va ma'rifiy intilishlari, so'nggi bir yarim asr davomida deyarli to'xtamadi. Ularning sharofati ila bugungi kunda erkin, ozod qushdek, hech kimdan kam bo'lmay yashab kelmoqdamiz.

Bizning ko'hna tariximiz, boy merosimiz, milliy davlatchiligimiz, muqaddas dinimiz, urf-odat va an'analari qayta tiklandi. Bugungi kunda mehr-oqibat, bag'rikenglik, hamjihatlik kabi oliyanob fazilatlar milliy va umumbashariy qadriyatlarga hurmat, vatan taqdiri va kelajagiga daxldorlik tuyg'usi yuragimizning tub-tubidan o'rin oldi. Darhaqiqat, istiqloq tufayli o'zligimizni angladik.

Ozod xalq mustaqil davlat sifatida, O'zbekistonning bor bo'y-bastini, ulkan salohiyatini butun dunyoga namoyon qilish imkonini ochildi. Bizni jahon tanidi, xalqimizning fidokorona mehnati, yoshlarning g'ayrati, shijoati ila vatanimizning shon-shuhrati olam uzra yanada kengroq yoyilmoqda. Hurriyat bergan beqiyos imkoniyatlar negizida ertangi kunimiz erkin va farovon kelajagimizni o'z qo'limiz bilan bunyod etmoqdamiz. Qilinayotgan islohotlar natijasida milliy davlatchiligimiz poydevori mustahkamlanib, chegaralarimiz daxlsizligi ta'minlandi.

Jamiyatimizda tinchlik va osoyishtalik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muhitini kuchaytirish, qonun ustuvorligi, inson huquq va erkinliklari hamda manfaatlarini

ro'yobga chiqarish borasida ulkan ishlar amalga oshirildi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, fermerlik harakati uchun yo'l ochib berilgani, makroiqtisodiy barqarorlikni, iqtisodiyotning yuqori sur'atlar bilan rivojlanishini ta'minlash, inflatsiyani pragnoz ko'rsatkichlari darajasida saqlab qolish, eng muhimi xalqimizning hayot sifati darajasini oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lmoqda. Bundan tashqari, mustaqillikka erishganimizdan so'ng turli yutuqlarga erishib, dunyoning eng oldingi davlatlaridan biriga aylandik.

Zamon talablariga mos yurish bilan birgalikda, milliylik bilan hamohang tarzda olib borilayotgan islohotlar, yurtidoshlarimiz uchun nihoyatda shinam va ko'rkam ujoylar, universitetlar, ko'pgina imtiyozlarga ega bo'lgan kasb-hunar maktablari, zamonaviy tibbiy jihozlar bilan ta'minlangan shifoxonalar, sayyohlar e'tiborini o'ziga jalb qilib kelayotgan turistik bino, madaniyat va san'at muassasalari, majmua va mehmonxonalar hamda tarixiy ijtimoiy mavzudagi ekranbop kinofilmlarning suratga olinayotgani bugungi kunning ko'zga ko'ringan yutuqlaridandir.



ZARINA NURULLAYEVA,

“MADANIYAT VA SAN'AT MUASSASALARINI TASHKIL ETISH HAMDA BOSHQARISH” TA'LIM YO'NALISHI
1-BOSQICH TALABASI

Yurtimizdagi har qanday o'zgarish va yutuqlarni jahon hamjamiyati tan olib kelmoqda.

Bugun yoshlar erishayotgan yutuqlar barchamizni quvontirib kelmoqda. Yaqinda bo'lib o'tgan Parij-2024 olimpiadasida vatandoshlarimiz tarixiy natija bilan ya'ni 13 ta medal bilan qaytishdi: 8 ta oltin, 2 ta kumush, 3 ta bronza medali. Jumladan, boks bo'yicha Hasanboy Do'smatov, Abdumalik Xalikov, Asadxo'ja Mo'ydinxo'jayev, Lazizbek Mullajonov hamda Bahodir Jalolovlar oltin medal bilan, dzudo bo'yicha Diyora Keldiyorova oltin medal, Alisher Yusupov, Muzaffarbek To'raboyevlar bronza medal, taekvondo WT bo'yicha Ulug'bek Rashidov oltin, Svetlana Osipova

kumush, og'ir atletika bo'yicha Akbar Jo'rayev kumush, erkin kurash bo'yicha Razambek Jamolov oltin va G'ulomjon Abdullayev bronza medali sohibi bo'lishdi. Yutuqlarimiz bundan keyin ham bardavom bo'lsin. Bunday yutuqlarning barchasi albatta tinch osoyishta hayot kechirayotganimizdan darakdir.

Mustaqilligimiz abadiy bo'lsin. Aziz yurtidoshlar! Mustaqillik bebaho boylik, ulkan mas'uliyatdir. Mustaqillikka erishish yo'lida ajdodlarimizning qanchalar og'ir kunlarni o'tkazganini, istiqloq tufayli millat o'z huquqiga ega bo'lganligini, hur, ozod va baxtli hayot kechirishini, ushbu oliy ne'matni qadrlab, avaylashimiz kerakligini hech qachon yodimizdan chiqarmasligimiz lozim.

O'ZBEK TEATRINING IJTIMOYIY-MADANIY JARAYONLARDAGI O'RNI

KAMOLIDDIN UMAROV,
O'ZDSMI
TAYANCH DOKTORANTI

Teatr — ijodiy hodisa bo'lishdan tashqari, jamiyatdagi g'oyaviy-mafkuraviy, ijtimoiy-madaniy jarayonlarga ta'sir ko'rsatuvchi san'at turi hisoblanadi. Bugungi globallashuv zamonida har bir millatning o'ziga xosligi va etnik qadriyatlarini saqlab qolish, ijtimoiy hayotda yuz berayotgan voqealarni aks ettirish, xalqning ma'naviy-ma'rifiy immunitetini oshirish, yoshlarni milliy va umuminsoniy g'oyalarga sadoqat ruhida tarbiyalashda teatr san'ati muhim o'rin tutadi. Shu bois, bugun san'atshunoslik, teatrshunoslik, madaniyatshunoslik, falsafa, sotsiologiya va boshqa gumanitar fanlar kesimida teatrni ijtimoiy institut sifatida tadqiq etish, uning ijtimoiy-madaniy jarayonlar bilan uzviy jihatlarini o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Teatrshunos E.O'rinovning “Bugungi o'zbek teatri” nomli risolasida ham mavzuga doir qator maqolalarni uchratish mumkin. Muallif uzoq yillar Madaniyat vazirligi va uning tizimidagi tashkilotlarda samarali mehnat qilgani, madaniyat boshqaruvida ko'p yillik tajribaga ega bo'lgani bois ijtimoiy-madaniy jarayonlarda teatr san'atining tutgan o'rnini amaliy va nazariy jihatdan puxta o'rgangan. Xususan, kitobdan targ'ibiy-ma'rifiy xarakterga ega bo'lgan bir qator maqolalar o'rin olgan bo'lib, ularda istiqloq davri milliy teatrimizda yuz bergan badiiy-g'oyaviy o'zgarishlar: dramaturgiya, rejissura va aktyorlik san'atidagi tendensiyalar, repertuar muammosi, turli festival va anjumanlarning madaniy aloqalarni mustahkamlashdagi o'rni tahlil qilinadi. Jumladan, muallif festivallarning ijtimoiy-madaniy ahamiyati haqida shunday yozadi: “Mustaqillik yillarida O'zbekistonda tez-tez teatr san'ati xalqaro festivallari o'tkazila boshlanganligi san'atkorlarimiz uchun yaxshi tajriba almashish, o'zaro ijodiy, do'stlik aloqalarini mustahkamlash omili bo'lsa, tomoshabinlar uchun boshqa xalqlar san'ati bilan va shu orqali ularning hayoti, o'ziga xos urf-odatlarini, an'analari bilan tanishish imkoniyatidir”.

Darhaqiqat, mamlakatimizda o'tkazilgan turli mahalliy va xalqaro teatr festivallari millatlar o'rtasida do'stlik-birodarlik, baynalminal g'oyalarni targ'ib qilishga xizmat qildi va bu hodisalarni ham ijtimoiy-madaniy jarayonlarning sahna san'atiga ta'siri sifatida baholash mumkin. Birgina “Navro'z” festivalini oladigan bo'lsak, dastlab 1989-yil Markaziy Osiyo

mamlakatlarining Teatr arboblari uyushmasi tomonidan ta'sis etilgan mazkur loyihani qamrovi yildan-yilga kengayib bordi va 1993-yilga kelib, ishtirokchi davlatlarning soni 23 taga yetdi. Yoki 1993-yil YUNESKO bilan hamkorlikda Toshkentda o'tkazilgan birinchi “Teatr: Sharq va G'arb” xalqaro festivalida dunyoning 18 nafar davlatlaridan teatr jamoalari ishtirok etdilar.

Ijtimoiy-madaniy jarayonlarning teatr san'atiga ta'siri teatrshunoslar tomonidan bilvosita o'rganilgan ilmiy tadqiqotlar ham mavjud. O'zbek teatri tarixi, an'anaviy teatr, jadid dramaturgiyasi, yevropa tipidagi teatrning vujudga kelishi, XX asr teatri va dramaturgiyasi, mustaqillik davri sahna san'atiga bag'ishlangan tadqiqotlarda ijtimoiy-madaniy muhit, voqeahodisalarning teatrga ta'siri xususida tahlil va mushohadalar uchraydi. Zero, aslida har qanday davrning adabiyot-u san'atini o'sha davr ijtimoiy-siyosiy tuzumi, g'oyaviy-mafkuraviy mezonlaridan ayro tasavvur qilish mumkin emas. Binobarin, o'zbek teatri taraqqiyotining turli bosqichlarida ijtimoiy-madaniy jarayonlar ta'siri ko'zga tashlanishi tabiiy hol.

Akademik M.Rahmonovning ikki jildlik “O'zbek teatri, Qadimiy zamonlardan XVIII asrga qadar”, “O'zbek teatri tarixi hamda XVIII asrdan XX asr avvaligacha” nomli fundamental tadqiqotlarda milliy teatrimizning uzoq asrlarga borib taqaluvchi tarixiy yo'li va evolyutsion rivojida ijtimoiy jarayonlar muhim rol o'ynagani asoslab berilgan.

M.Rahmonov yozganidek, “Xalqaro aloqa va savdo-sotiqning kuchayishi orqasida O'rta Osiyoga Yunon va boshqa Ellin davlatlarning madaniyati oqimi yana kuchaydi, bular hammasi mahalliy xalq madaniyati bilan chetdan kelayotgan madaniyat o'rtasidagi o'zaro ta'sir jarayonini borgan sari kuchaytirib yubordi”. Ikki xalq madaniyatining o'zaro assimilyatsiya bo'lishi haqida mulohaza yuritir ekan, olim qadimgi o'zbek teatrida ko'p qo'llanilgan “masxara” atamasining etimologiyasiga e'tibor qaratadi va ushbu tushunchani yunonlarning quyi tabaqa teatri — “O Maskaras” va “mim” teatrlari bilan bog'liq ekanini asoslaydi. Demak, tilimizga singib ketgan shu birgina atamaning genezisi yunon madaniyatiga borib taqalar ekan, bu xalqlar o'rtasidagi ijtimoiy-madaniy aloqalar nihoyatda chuqurligi, millatlarni bog'lovchi mushtarak ildizlar ancha mustahkam

bo'lganidan dalolat beradi.

Shuningdek, olim qadimda O'rta Osiyo va Sharqiy Osiyo mamlakatlari o'rtasida ham madaniy aloqalar rivojlangani xususida yozadi. Ayniqsa, Yaponiya va Xitoy bilan iqtisodiy va madaniy munosabatlar chuqur tarixga egaligi, bu xalqlarning madaniyati va san'ati bir-biriga ta'sir ko'rsatganini qayd etadi. Bundan xulosa shuki, mamlakatimiz hududida teatr san'atining ilk kurtaklarini vujudga kelishi, rivojlanishida turli xalqlarning madaniyati, qadriyatlarini, ijtimoiy jarayonlari muhim rol o'ynagan.

XX asrning boshiga kelib jadid ma'rifatparvarlarining sa'y-harakati bilan Turkistonda yevropa tipidagi professional teatrning vujudga kelishi shubhasiz, davrning ijtimoiy-mafkuraviy ehtiyoji mahsuli edi. Zotan, san'atning jonli turi hisoblangan teatr xalqning ruhiyati, ongiga kuchli ta'sir ko'rsatishi va yakdil g'oya atrofida birlashtirishi lozim. Jadidlar davri teatri va dramaturgiyasini tadqiq etgan M.Rahmonov, Sh.Rizayev, N.Karimov singari olimlarning ilmiy asarlarida XX asr boshida Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, jadidlarning ma'rifiy harakati va g'oyaviy qarashlari bevosita professional teatrning tug'ilishiga zamin hozirlaganini ta'kidlanadi. Bu davrni maxsus o'rgangan Sh.Rizayev Turkistonga yevropa tipidagi dramaturgiya va teatrning kirib kelishi, tarixiy-ijtimoiy sharoit va jadid dramaturgiyasining shakllanishi xususida to'xtalar ekan, shunday yozadi: “O'zbek jadid dramaturgiyasi hamda teatrlarning shakllanishi, avvalo, ijtimoiy hayot taqozosi va ehtiyoji tufayli sodir bo'ldi. Tarixiy jarayon va Rossiyaning mustamlakachilik siyosati mamlakatdagi musulmon o'lkalarning, jumladan, Turkistonning tom ma'nodagi milliy uyg'onishi uchun vaziyat yetilganligini namoyon qilmoqda edi”. Darhaqiqat, teatr ijtimoiy hayotni aks ettiruvchi, jamiyatdagi ko'plab muammolarga yechim izlovchi san'at turi sifatida jadid

ma'rifatparvarlari uchun zarur ma'naviy qurol vazifasini bajardi. Turkistonda milliy uyg'onish ruhini kuchaytirishga, xalqning milliy o'zligini anglashiga xizmat qildi.

Shuningdek, T.Tursunov, M.To'laxo'jayeva, S.Qodirova, T.Islomov, D.Rahmatullayeva, H.Ikromov, O.Rizayev, O.Tojiboyeva singari teatrshunoslarning tadqiqotlarida ham ijtimoiy-madaniy jarayonlarning teatrga ta'siri, davr va teatr munosabatlari muayyan kontekstlarda o'rganilgan.

T.Tursunovning “Oktabr inqilobi va o'zbek teatri” nomli monografiyasida 1917-yilda yuz bergan Oktabr inqilobi, bolsheviklarning hukumat tepasiga kelishi va ushbu siyosiy jarayonning madaniy muhit, xususan, teatr san'atiga ko'rsatgan ta'siri tahlil qilinadi. Muallif oktabr inqilobiga qadar o'zbek xalqi professional teatrga ega bo'lmagani, Turkistonning Rossiyaga qo'shib olinishi natijasida bu mamlakatda ham yevropa tipidagi teatr yaratishga qiziqish paydo bo'lganini ta'kidlaydi. Shuningdek, asr boshida Turkistonga tez-tez tashrif buyurgan ozarbayjon va tatar teatr truppalari ham bu jarayonda muhim o'rin tutganini eslash lozim. Biroq T.Tursunov yozganidek, “Xalqi asosan qishloq xo'jaligi bilan band bo'lgan o'lka ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan ancha orqada qolgan edi.

Turkistonda teatr asoschilari bilan xalq o'rtasida amalda hech qanday munosabat yo'qligini izohlovchi sabablardan biri ham shu edi”. Inqilob esa, teatr san'ati rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi, hukumat tomonidan sohani qo'llab-quvvatlash uchun qator sa'y-harakatlar amalga oshirildi, badiiy jarayonlarda ham o'zgarishlar ko'zga tashlandi. Jumladan, iste'dodli yoshlar bilan ishlovchi mustaqil teatr uyushmasi tashkil etiladi, mamlakatning yirik madaniy markazlarida yangi teatr truppalari tuziladi. Farg'onada Hamza Hakimzoda Niyoziy, Toshkentda Mannon Uyg'urning truppalari yorqin ijodiy faoliyati bilan ajralib chiqadi.

Xulosa qilib aytganda, har bir davrdagi ijtimoiy-madaniy jarayonlar o'zbek teatrlarining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatdi. Buning natijasida spektakllar yaratildi va sahna yuzini ko'rdi. Aynan bugungi kun o'zbek teatrida sahnalashtirilgan va sahnalashtirilayotgan spektakllar ham g'oyaviy-badiiy jihatdan teran, shaklan va mazmunan yaxlit bo'lishi barobarida sahna qonuniyatlari asosida yaratilishi, tarbiyaviy xarakterga ega bo'lishi, eng asosiysi tomoshabinning estetik didini oshirishi, ma'naviy ozuqa berishi va zavq ulashishga xizmat qilishi zarur.

Ektranda Rajab Adashevni ko'rgan kishi bor-ki, yuziga tabassum yuguradi. Aktyor "Yangi boy", "Boyvachcha", "Kichkina tabib", "Afandi va Azroil", "Devona", "Alpomish", "Otamdan qolgan dalalar", "Bomba", "Qizilqum", "Alibobo va qirg qarog'chi", "Yettinchi jin", "Semurg", "Oy borib, omon qayt" kabi yuzdan ortiq filmlarda o'ziga xos, esda qolarli obrazlar yaratdi. Ayniqsa, "Abdullajon" filmidagi Bozorboy obrazi uni xalq ichida yanada mashhur qildi. Ushbu roli orqali u o'zbek kinosining boqiylikka daxldor aktyori sifatida tomoshabinlar ko'nglidan joy oldi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Aktyorning Abdullajonga qarata aytilgan: "Shakarsan, shakar!" iborasi tomoshabinlarning xonadonida ham yangrashi tabiiy hol. Bu kinofilmni tomoshabin qancha ko'rsayam zerikmaydi, aksincha zavq oladi.

1964-yilda Samarqand viloyatining Urgut shahridan Toshkentga kelib, yigirma yoshida "O'zbekfilm" kinostudiyasida faoliyat yurita boshlagan. Birin-ketin yaratgan turli obrazlari orqali o'z iste'dodini namoyon qilib, tezda el nazariga tushgan Rajab Adashevning mehnati davlatimiz tomonidan yuksak baholandi. U 1997-yilda "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artist", 2010-yilda "O'zbekiston Respublikasi xalq artisti" unvoniga sazovor bo'ldi. Salkam 80 yoshni qoralagan, hanuzgacha el xizmatidagi sevimli aktyorimiz 2021-yilda "Do'stlik" ordeni sohibi, 2022-yilda "Mehnat faxriysi", "Madaniyat va san'at fidokori" ko'krak nishonlari bilan taqdirlandi.

Sevimli aktyorimizning hayoti, oiladagi o'rni, qiziqish va intilishlari bilan yaqinroq tanishish maqsadida uning turmush o'rtog'i, erishgan muvaffaqiyatlariga salmoqli hissa qo'shgan Ra'noxon aya SIROJEVANI suhbatga tortdik.



Rajab aka kino uchun tug'ilgan

– Ra'noxon aya, yoshligingizda aktyorning rafiqasi bo'laman, degan fikr xayolingizga ham kelmagan bo'lsa kerak-a?

– O'ylash qayoqda deysiz. Bizning yoshligimiz og'ir yillarga to'g'ri kelgan. U paytlarda bugundek dorilomon kunlar qayda?! Urgut tumanining "Kamogaron" mahallasida yashardik. Otam urush qatnashchisi bo'lib, savdo sohasida ishlaganlari uchun bizning sharoitimiz boshqalarnikidan xiyol yaxshiroq edi, chamamda. Onam uy bekasi, etti farzandning hamma tashvishi zimmasida edi. Otam o'qishimizga katta ahamiyat bergani uchun barcha aka-singillar maktabni namunali o'quvchi sifatida tugatdik. U paytda qishloqda kamdankam oila farzandini o'qishga jo'natar edi. Mening orzuim ona tili va adabiyoti o'qituvchisi bo'lish edi. Ammo Samarqand davlat institutiga kirish imtihonlaridan o'ta olmagach, otam meni sobiq "rayon komsomol komiteti"ga ishga joylashtirib qo'ydi. 4-5 oy ishlaganimdan keyin o'zim tahsil olgan maktabga ishga chaqirishdi. Shu bilan mening o'qituvchilik faoliyatim boshlandi.

– Zamona zayli bilan u paytlarda o'qituvchilar yetishmaganligi uchun bilimli yoshlarni ishga olishgan ekanda?

– Ha, chunki sharoit qiyin, odamlar qorin g'amida, kitob-daftar, o'quv qurollari yetishmas, bir dona kitobni navbati bilan o'qir edik.

– Rajab aka bilan tanishuvingiz qanday bo'lgan? Uning elga mashhur aktyor bo'lishi mumkinligi haqida tasavvur ham qilmaganmisiz?

– Aslida ikkalamiz bir maktabda tahsil olganmiz, ammo bir-birimizni tanimaganmiz. U kishi maktabni tugatgach, ustozini ko'rishga kelib turar ekan. Maktabga ustozini yo'qlab kelganida, shu yerda ishlaydigan jiyani: "Uylansangiz bir yaxshi qiz bor", deb meni ko'rsatibdi. Shu bilan taqdirimiz bog'landi. 1972-yilda to'yimiz bo'ldi. Qaynotam Rajab aka 12 yosh bo'lganida olamdan o'tgan, oilada qaynonam va ikki qaynopam bo'lib, ular ham turmushga chiqib ketishgan edi. Qaynonam juda mehnatkash, mehribon ayol edi. Mahallamizda qo'ni-qo'shnilarning ko'ylaklarini tikar, chopon tikib, bozorga olib chiqib sotib, ro'zg'or tebratardi. Ana shunday tinch va osoyishta oilaga kelin bo'ldim. Rajab aka ham bir yilcha Urgut xalq teatrida ishlab yurdilar-u, Toshkentga ketish fikridan qaytmadilar. Onasi u kishini oilali bo'lsa shu yerda yashab qolar, degan niyatda

Urgutdan uylantirgan bo'lsa-da, katta ijod qozonida qaynash ishtiyoqi kuchayib bordi. "O'zbekfilm"ga ishga chaqirgach, ketdilar...

Men qishloqda qoldim. Chunki keksa qaynonamni yolg'iz tashlab ketolmasdim. Maktabda o'qituvchilik qildim, bu orada qizim tug'ildi. Qaynonam rahmatli qizimga qaradi, men ishladim, shu bilan birga, institutning sirtqi bo'limiga o'qishga kirdim. Erta tongda ketib, kech

2-3 oyda bir kelib, ertasiga yana jo'nab ketardi. Shu tarzda yashab, bir qiz, bir o'g'illi bo'ldik.


– Mamlakat poytaxtida o'z yo'lini topib, rizqini terish, shaharga singib ketish osonmas. Bu jarayonlar qanday kechgan?

– Oson bo'lmadi, albatta. Men ikki bolam bilan ishlay olmadim. Ularni bir yilgacha bog'chaga joylashtira olmadik. Bir kishiga

chaqirtirib, mashinada bir amallab Urgutga olib ketdik. Taqdir yozig'ini qarang-ki, borgan kunimiz uchinchi farzandimiz tug'ildi. Shu bilan xo'jayinim sakkiz oy onasiga qarab, yonlaridan jilmay o'tirdi. Ishlari qolib ketayotganligi uchun men: "Siz boravering, onamizga ham, bolalarga ham o'zim qarayman, maktabga ishga kiraman, ro'zg'orni ham o'zim tebrataman", deb, hammasini zimmamga olib, u kishini Toshkentga jo'natdim. Chunki boshqa yo'l yo'q edi, u kishining ishi qolib ketayotgan edi. Ertalab qaynonamga, bolalarga qarab, maktabga ketardim, 2-sinfda o'qiydigan qizim beshik tebratib, ukalariga qarab o'tirardi. Men kelishim bilan qizalog'im maktabiga chopardi. O'sha 1981-1982-yillar hayotimizda og'ir sinovli yillar bo'ldi. Bir yildan keyin qaynonam bandalikni bajo keltirdi. Eshikni qulflab ketsa uyat bo'ladi, deb yana bir yil, toki qaynonamning hamma ma'rakalarini o'tkazganimizcha Urgutda yashashga to'g'ri keldi. To'rtinchi farzandim ham Urgutda tug'ilib, 7-8 oylik bo'lganidan keyin yana Toshkentga kelganman. Albatta, hayotda hech narsa izsiz ketmaydi, bu orada sog'ligimda muammo paydo bo'lib, asabim charchab, uyqusizlik kasaliga duchor bo'lib qoldim. Hozir ba'zida shularni eslab, "Ering bo'la turib, to'rt bolani boqib, ham ishlab, ham ro'zg'or tebratgan sendek ayolga haykal qo'yish kerak" desa, xursand bo'lib ketaman. Inson suv kelsa simirib, tosh kelsa kemirib yashasagina, yorug' kunlarga yetar ekan.

– Aktyorning kinoga muhabbati shu qadar kuchli bo'lishiga nima sabab bo'lgan?

– Menimcha, san'atga qiziqish turmush o'rtog'imga otasidan o'tgan bo'lsa kerak. 1930-yillarda "O'zkino" tashkil qilingach, unda chavandoz dublyor bo'lib ishlagan. Ish jarayonida otdan sakrab, oqsoq bo'lib qolgan. Rajab aka ham bolaligidan san'atga qiziqqan bo'lib, yolg'iz o'g'il bo'lgani uchun ham onasining uni shaharga o'qishga yuborishga ko'zi qiymay, quruvchi bo'lib ishlab, o'z bag'rida, ko'z oldida yurishini istagan. Ammo Rajab aka bir yilgina zo'r-bazo'r ishlab, baribir Toshkentga ketgan. Viloyatdan kelgan, hech qayerda o'qimagan bu yigitning iste'dodini sinovdan o'tkazgan ustoz san'atkorlar uning diplomsiz ekaniga ham e'tibor qaratmasdan turli rollarga qabul qilishgan. Keyinchalik ya'ni, 1964-yilda "O'zbekfilm" kinostudiyasiga ishga kirib, 1970-yilda Toshkent teatr va rassomchilik institutining aktyorlik bo'limini tamomlagan.



kelardim. Qaynonam ancha keksa 73 yoshda bo'lsa ham o'qing, deb bolamga qarab o'tirardi. Urgut bilan Samarqand orasida qatnab o'qidim, ham maktabda ishladim, bo'sh vaqtimda kashta, chopon tikardim, to'g'risi, mening ham qilmagan hunarim qolmadi, chunki ro'zg'or tebratish kerak edi. Rajab aka Toshkentda, men Samarqanddaman. U kishining ijodga sho'ng'igan paytlari, oylab syomkalarda yurishardi. Qaynonam rahmatli har kuni yo'lga termulib, 44 yoshida Allohdan tilab olgan yolg'iz o'g'lini kutardi. Rajab aka

to'rt kishilik oilani tebratish osonmas. Rahimjonim uch yoshga to'lgach, chilonzor tumanidagi 200-maktabga ishga kirishga muvaffaq bo'lganman.

Hayot kutilmagan tasodiflarga to'la. Qaynonamning uzoqdaligidan bizning halovatimiz yo'qoldi. Farzand kutayotganligimizni bahona qilib, chaqaloqqa qarashmasangiz bo'lmaydi, deb yonimizga olib kelmoqchi bo'ldik, olib ham keldik. Ammo u kishi Toshkentga kelib insult bo'lib qolsa, deng. Qish qahratonida telegramma orqali ikki pochchalarini



– Aktyor bilan yashashning mushkul va afzal tomonlari nimalardan iborat? Meningcha, odam hayotidagi voqea-hodisalarga, turmushdagi kundalik tashvishlarga oson deb qarasa oson, qiyin deb qarasa qiyin ko‘rinaveradi. Shunday emasmi?

– Haqiqatdan ham shunday. Umr yo‘ldoshim kasbiga shunchalar sadoqatli edi-ki, hayotimizdagi har qanday vaziyatda ham ishdan, syomkalardan qolmas edi. Hattoki, men kasal bo‘lamanmi, bolalar sog‘ligida muammo bo‘ladimi, “Bormasam bo‘lmaydi”, deb ishga ketardi. Bir o‘zim begona yurtida goh ishga, goh shifokorga, goh uyga yuguraman... Agar o‘sha paytlar bu holatni oilaga e‘tiborsizlik, deb baholamasam, oilam darz ketishi mumkin edi.

Ba‘zida aktyorga rol berilmagan vaqtlari ham bo‘lard. Shunday vaqtda oilaga ayolning yordami kerak. Buning ustiga aktyorning ayoli oila zalvorini yelkasiga olishga tayyor bo‘lishi lozim. Uzoq muddatli syomkalar natijasida uyidan xabar ololmaydi. Bu uning kasb taqozosi ekanligini tushunishi lozim.

Aktyorning oilasi bo‘lishning yaxshi tomoni shuki, premyeralarda, ko‘cha-ko‘yda yurganingizda odamlar sizga falonchi aktyorning ayoli sifatida havas bilan qarashadi, buning ustiga yaxshi film yaratilsa, uzoq yillar tomoshabinlar ehtiromiga sazovor bo‘lishadi.

– Ra‘noxon aya, aktyor hayotni kinoda aks ettirar ekan, deyarli barcha obrazlarda ayollar bilan birga rollar ijro etadi. Sizlar ancha vaqt bir-biringizdan uzoqda yashashga majbur bo‘lgansiz, shunday vaqtlarda umr yo‘ldoshingizni rashk qilmasmidingiz?

– O‘rinli savol. “Oy borib, omon qayt” filmi biz fotiha qilingan paytimiz ekranlarga chiqqan edi. Bu kinoni Urgut kinoteatrda o‘qituvchilar bilan birga tomosha qilganimizda, kasbdoshlarim: “Begona qizlar bilan yuribdi, rashk qilmaysanmi?” deb so‘rayverishgan. “Kinoda-ku”, deb javob berganman. Ayollar bu savolni menga ko‘p berishadi. “Qarang, rashk qilmaysizmi?” deb gij-gijlovchilar ham bo‘lgan. “Yo‘q, nimaga rashk qilaman”, deb javob berganman. To‘g‘risi, yetishmovchilik, bolalar, ro‘zg‘or tashvishi bilan bo‘lib, rashk haqida o‘ylab o‘tirishga vaqtim ham bo‘lmagan. Maktabda “Siz yaxshi dars berasiz”, deb ikki sinfni berib qo‘yishgan, boshlang‘ich sinflarga

ikki smenada dars o‘tardim. Oiladagi kelishmovchilik va janjallar ayollarning uyda bo‘sh o‘tirishganidan kelib chiqsa kerak, deb o‘ylayman.

– Aktyor ko‘pchilik rollarida sodda, samimiy qahramon obrazida gavdalanadi. Aslida u kishi qanday inson?

– Hayotda ham sodda, samimiy, ko‘ngilchan odam. Oilasiga sadoqatli inson. Ijodiy safarlarga ketsalar ham ro‘zg‘orimizni but qilib, keyin ketardi. Bolajon kishi. Ishdan kelishi bilan bolalariga quchog‘ini ochardi. Hozir nevaralariga juda mehr bergan. Kelinlarining qo‘lidan bolasini olib, ularga qarab, ovqatlantirib, o‘ynatib, ertaklar aytib berib, uxlatib qo‘yadi. Bolalar ham bobosi bilan zerikishmaydi. Yoshligida ish bilan bo‘lib, bolalari yonida kam bo‘lganining o‘rnini nevaralariga bergan mehri bilan to‘ldirayapti. Kelinlarini ham juda hurmat qiladi. Nima taom tayyorlashni so‘rashsa, “O‘zingiz yegingiz kelgan ovqatni pishiring”, deydi. “Kelinim iymenib, yaxshi ko‘rgan taomini yemay yurmasin”, deydi-da. Ovqatdan so‘ng kelinlarini alqab, uzundan-uzoq duo qiladi. Birovning ko‘nglini og‘ritish u kishiga begona. U kishining kayfiyatini ko‘tarish, ko‘nglini olish juda oson: o‘z vaqtida biroz e‘tibor qaratilsa, bas.

– Aktyor hayotda ko‘proq nimalardan aziyat chekadi?

– Nohaqlik bo‘lsa, kim-kimgadir ichiqoralik qilib, tuhmat qilsa, ba‘zida ikkiyuzlamachi odamlarni ko‘rsa, xafa bo‘ladi. O‘z vazifasiga mas‘uliyatsizlik bilan qaraydiganlarni yoqtirmaydi. Mansab va bo‘ylik orttirish maqsadida o‘z yaqinlarini ham sotib ketadigan insonlarni yomon ko‘radi.

– Aktyor ko‘pincha komik rollar ijro etadi. Oila davrasida, hayotda ham shunday xislatga egami yoki jiddiy xarakterli insonmi?

– Umr yo‘ldoshimni ko‘nglida kiri yo‘q inson, tug‘ma komik aktyor deyish mumkin. Ammo gohida xushchaqchaq, gohida bosiq. Dasturxon atrofida o‘tirib ovqatlanayotganimizda ham tabiiy holatda kulguga sabab bo‘ladigan hazil qiladi. Ba‘zida nevaralarimizga bir she‘rni ham sokin, ham kulguli, ham qayg‘uli ohangda aytirib, hammamizni kuldirib o‘tiradi. Faqat uyda oltin qoidamiz bor: u kishining aytgani, buyurgan ishi, albatta, bajarilishi kerak va shart. Gapi yerda qolmasligi kerak, bu masalada juda injiq.

– Bo‘sh vaqtlarida ko‘proq nimalar bilan mashg‘ul bo‘lishni yaxshi ko‘radi?

– Yoshi 80 ga yaqinlashgan, aniqrog‘i, 78 ga kirgan bo‘lsa ham u kishini goh u yoqqa, goh bu yoqqa chaqirishadi. Kitob mutolaa qiladi. Dunyoning eng taniqli aktyorlari rol ijro etgan kinolarni ko‘rib, ularning mahoratini kuzatadi. Bu ijodkor inson bir umr o‘zi ijro etgan rollari bilan odamlarga ma‘naviy ozuqa bergan bo‘lsa, endi nevara, evaralariga o‘zaro hurmat va go‘zal muomalani o‘rgatayapti, desam mubolag‘a bo‘lmaydi.

– Rajab Adashev o‘zining “Abdullajon”, “Kichkina tabib”, “Osmondagi bolalar”, “Devona”, “Kichkina tabib” kabi o‘nlab, yuzlab filmlaridagi rollari bilan barcha tomoshabinlarning ko‘nglidan joy oldi va ularning hurmatiga sazovor bo‘ldi, umrboqiy obrazlar yaratadi. Sizga u ijro etgan qaysi filmlar ko‘proq manzur bo‘lgan va ularning qay birida o‘z xarakteriga yaqin obrazlarda gavdalangan?

– “Abdullajon” filmi ko‘pchilik tomoshabinlar qatori menga ham juda manzur bo‘lgan. O‘sha filmdagi roli aktyorning hayotdagi o‘zligiga juda yaqin. Shu kinoni ko‘rsam, turmush o‘rtog‘imning asl qiyofasini ko‘rgandek bo‘laman. Rajab aka qaysi filmda, qaysi rolni talqin etmasin, aytmoqchi bo‘lgan fikrini nafaqat so‘zda, balki, har bir xatti-harakatida, yuz ifodasida bayon eta olish qobiliyatiga ega. Go‘yo bu kino emas, o‘z hayotida bo‘layotgan voqea kabi oddiy va ishonarli qilib o‘ynaydi. O‘zining tili bilan aytganda, shu obrazda “yashaydi”. Rajab aka kino uchun tug‘ilgan, agar uyqusidan uyg‘otib, biror obrazdagi epizodni so‘rasangiz, osongina ijro etib bera oladi.

– Farzandlari orasida ota kasbini davom ettirayotganlari bormi?

– Qizlarimiz mening kasbimni tanlab, o‘qituvchi bo‘lishdi. O‘g‘illarimiz ham ota kasbiga qiziqishardi-yu, ammo otasi: “San‘at juda og‘ir soha, unda ishlash uchun joningni fido qilishing lozim, ba‘zida oilangni ham ikkinchi o‘ringa qo‘yishingga to‘g‘ri keladi. Mening qiynalganim yetar”, deb ruxsat bermadi. Lekin baribir

san‘atga yaqin sohalarni tanlashdi. Rahim “O‘zbekfilm” DUKda ovoz yozish sexi boshlig‘i. Ziyodulla MTRKning “Ma‘naviyat va ma‘rifat” kanalida montaj ustasi. Baribir san‘atkor oilasida kamolga yetgach, ikkalasi ham san‘at shaydosi.

– Nima deb o‘ylaysiz aktyorning armoni, ushalmagan orzusi bormikan?


– Bilmadim, lekin bu haqida biror marta gapirganini eshitmaganman. Men u kishi bilan yarim asr, 50 yil birga yashadim. Yoshligida erishgan muvaffaqiyatlarining ham, rolsiz qolib qiynalganlarining ham guvohi bo‘lganman. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist, O‘zbekiston xalq artisti, “Do‘stlik” ordeni sohibi bo‘ldi. Davlatimiz tomonidan mehnati qadr topdi, hurmat ko‘rsatildi va ko‘rsatilmoqda. Bir aktyor erishishi kerak bo‘lgan hamma narsaga erishib, yuzdan ortiq filmlarda suratga tushdi. Bu aytishga oson. Xalqqa tanilib, hurmat-ehtiromga sazovor bo‘ldi. O‘n nafar nabiramiz, ikkita evaramiz bor. Rajab aka hammamizning ardog‘imizda. Eng baxtli odam ham yashasa shunchalik yashar, shunchalik ehtirom ko‘rar-da.

– U kishi bilan kechirgan, bugun ortda qolgan umr yullaringizga qarab, ko‘nglingizdan nimalar kechadi?

– Faqat shukronalik! Men yaxshi inson bilan yashadim va yashayapman. Oramizda urush-janjal bo‘lmagan, doim kelishib, og‘ir pallada ham bir-birimizni to‘g‘ri tushunib yashadik. Shuning uchun ham umr yo‘ldoshimning iste‘dodi yuksalib boraverdi. Muhimi, halol yashadik, bir-birimizning ko‘zlarimizga tik boqa olamiz. Umr – shoshqin daryo va ortda qolajak iz. Ana shu ortimizda qolgan izga qayrilib boqqanimizda yuzimiz qizarmaydi, aksincha dilimiz yorishadi. Bu yorug‘lik baxt shu‘lasi bo‘lsa kerak.

– Ra‘noxon aya, ajoyib suhbat uchun tashakkur. Sizning qalbingizdagi shu‘la yanglig‘ yog‘du barchaning umr yo‘llarini yoritinsin.

“Ijodiy parvoz” uchun Saodat MATYOQUB qizi suhbatlashdi





OQILA ORTIQBOYEVA,
“MADANIYAT VA SAN’AT
MUASSASALARINI TASHKIL ETISH
HAMDA BOSHQARISH” TA’LIM
YO’NALISHI 3-BOSQICH TALABASI



NIZOMIDDIN ESHMURODOV,
“MADANIYAT VA SAN’AT
MUASSASALARINI TASHKIL ETISH
HAMDA BOSHQARISH” SIRTQI TA’LIM
YO’NALISHI YO’NALISHI 3-BOSQICH
TALABASI



JALOLIDDIN YORIYEV,
OSIYO TEXNOLOGIYALAR
UNIVERSITETI TARIX YO’NALISHI
4-BOSQICH TALABASI

Sayohat

Nurli maskan, musaffo osmon,
Zominingni qo’msayman hamon,
Yo’lim tushsa albat shu tomon,
Jizzaxga borgum bor mani.

O’zga yerda o’xshamas noni,
Dong taratgan shul Registoni,
Yo’qlab qo’yay Temur bobomni,
Samarqandga borgum bor mani.

Yetti pirga borib qaytaman,
Tilovatlar qilib, niyat aytaman,
Ta’rifingni so’ylab yana qayta man,
Buxoroga borgum bor mani.

Atlas shahri o’shal Marg’ilon,
Gullarning Vatani Namangan,
Bozor rastalari lim to’la Rishton,
Vodiy tomon borgum bor mani.

Xushta’m o’shal tuxumbaraging,
Taralgan olamga daraging,
Ichan, Dishanqal’a yongan yuraging,
Xorazmga borgum bor mani.

Serjilo navosi baxshilar tori,
Adirin kezadi uchqur tulpori,
Jahonni lol qilding - Boysun bahori
Vohang tomon borgum bor mani.

Har bir go’shang uchun bergum bor jonni,
Sayohat qilishdan oldin jahonni,
Avval ziyorat qil O’zbekistonni,
Shu yurtda tug’ilib borgum bor mani,
Yangi O’zbekiston qurgum bor mani!



Meni sevsang bo’lmasmidi?

Sevging olov quchog’ida cho’g’midi yor,
Yuragimga otgan toshing o’qmidi yor,
Bundan bo’lak ozorlaring yo’qmidi yor,
Endi hijron azobida yonar jonim,
Meni sevsang bo’lmasmidi, go’zal yorim?

Sensiz o’tgan kunim kunmas, axir dildor,
Sening ishqing kuyi bilan chertaman tor,
Baxt mayiga tashna qilib, aylading xor,
Endi hijron azobida yonar jonim,
Meni sevsang bo’lmasmidi, go’zal yorim?

Sevinchlaring umidimning shaxti edi,
Senga yetgan kunim dilning baxti edi,
Shoiringning quvonab, kular vaqti edi,
Endi hijron azobida yonar jonim,
Meni sevsang bo’lmasmidi, go’zal yorim?

Axir yurak sog’inchlarga to’lib ketdi,
Kim achindi, yana kimlar kulib ketdi,
Senga ishonch bergan dilga shikast yetdi,
Endi hijron azobida yonar jonim,
Meni sevsang bo’lmasmidi, go’zal yorim?

Men sendek xudbin emasman

Muzladim, to’xtadi sevgi navosi,
Sukunat jonimning yolg’iz shifosi,
Chora yo’q dardning biron davosi,
Endi men senga hech bir so’z demasman,
Bilib qo’y, men sendek xudbin emasman.

Oxirgi bekatda to’xtadi orzu,
Kulyapman, ammo bu bir soxta kulgi,
Qara, ne bo’lsa ham yashayapman-ku,
Endi men senga hech bir so’z demasman,
Bilib qo’y, men sendek xudbin emasman.

Ko’nikdim o’rtada ne bo’lsa bo’ldi,
Toza yuragimga zardoblar to’ldi,
Qo’rqma sevganim yo’q, chunki dil o’ldi,
Endi men senga hech bir so’z demasman,
Bilib qo’y, men sendek xudbin emasman.

Hur O’zbekiston

Shukur hissin tuygin, har bir oningda,
Ulug’larning qoni oqar qoningda,
Farzanding salomat yurar yoningda,
Vatan deb shod bo’lsin bizning ko’ngillar!

Kimdir xorijlarda kezib sarsondir,
Sog’inchlari dilda hamon armondir,
Aslida Vatansiz yashash yomondir,
Vatan deb shod bo’lsin bizning ko’ngillar!

Yer yuzida yo’qdir bundayin makon,
Ezgu o’y-u g’oyasi tinchlikka qo’rg’on,
Jahon ichra aziz hur O’zbekiston!
Vatan deb shod bo’lsin bizning ko’ngillar!

Yurtim bu tug’ilgan qishloq yo shahrim,
Olam aro mening g’ururim, faxrim,
Vatanfurushlarga qattiqdir qahrim,
Vatan deb shod bo’lsin bizning ko’ngillar!

Qancha zahmatlarni yengdi bardoshing,
Endi hech so’nmasin nurli quyoshing,
Muborakdir bugun o’ttiz uch yoshing,
Vatan deb shod bo’lsin bizning ko’ngillar!



NARGIZA SHODMONOVA,
“MADANIYAT VA SAN’AT
MUASSASALARINI TASHKIL ETISH
HAMDA BOSHQARISH” TA’LIM
YO’NALISHI 2-BOSQICH TALABASI

Dil sindi, yosh to’kdim yo’llaring kutib,
Oromsiz tunlarda bedorlar o’tib,
So’ng barin Allohga havola etib,
Endi men senga hech bir so’z demasman,
Bilib qo’y, men sendek xudbin emasman.

Axborot-kutubxona muassasalarida

Kitobxonlik madaniyatini ommalashtirish va bolalar kitobxonligini rivojlantirish

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning 2017-yil 13-sentyabrdagi PQ-3271-sonli **“Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi”** axolining ma'naviy darajasini yuksaltirishda ulkan ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni ommalashtirish, ularning mutolaa madaniyatini yuksaltirish orqali erishilayotgan manfaatini hech narsaga qiyoslab bo'lmaydi. Chunki kitob mutolaasi faqat yaxshilik, ezgulik, vatanni sevish, halol, poklik, rostgo'ylik va samiylik kabi insoniy fazilatlarini kamol toptirishga ko'mak beradi.

Jahon mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida, ayniqsa, intellektual rivojlanishida XXI asr katta o'zgarishlarga boy davr bo'lmoqda. Taraqqiyot o'z ortidan ta'limni ergashtirib, o'ziga yanada katta e'tibor talab etmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy-iqtisodiy sohani isloh qilishning hozirgi sharoitida axborot-kutubxona faoliyatini rivojlantirishning maqsad va vazifalari mamlakatda amalga oshirilayotgan o'zgarishlarga va xalqaro amaliyotga mos bo'lishi zarur. Shu munosabat bilan fuqarolarning axborotdan erkin foydalanish bo'yicha konstitutsiyaviy huquqlarini, shu jumladan milliy qadriyatlar va jahon madaniyati, amaliy va fundamental bilimlardan bahramand bo'lishini ta'minlaydigan, aholiga axborot-kutubxona xizmatlari ko'rsatishning sifat jihatidan yangi tizimini yaratish, kutubxonalarda saqlanayotgan milliy madaniy merosni asrab-avaylash va boyitish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish hisobiga axborot-kutubxona muassasalari faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish ustuvor vazifaga aylanmoqda.

Prezidentimiz tomonidan 2019-yil 19-mart kuni yoshlarni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb qilish, yoshlarda axborot texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish, ular o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirishga qaratilgan beshta muhim tashabbus ilgari surildi.

Mazkur 2017-2021-yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strate-

giyasining to'rtinchisi, ya'ni aholi, ayniqsa, yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish yosh avlodning intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, Prezidentimizning turli nutq va ma'ruzalarida ta'kidlanganidek, madaniyat sohasida jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish, yoshlarimizni haqiqiy san'atni anglashga o'rgatish, ularning estetik olamini sog'lom asosda shakllantirish bo'yicha muhim vazifalar belgilanishi diqqatga sazovordir. Bugun jadal rivojlanayotgan mamlakatimizda ta'lim tizimi sohasida yosh avlodga zamonaviy ta'lim va tarbiya berish borasida samarali ishlar amalga oshirilmoqda.

Ta'lim-tarbiya berish bilan birga, yoshlarni turli mafkuraviy tahdid va tajovuzlarga moyil bo'lmagan, ularga qarshi kuch topa oladigan, mustaqil fikrlaydigan, dunyoqarashi keng, o'ziga ishongan, mas'uliyatli va ilmi shaxs etib tarbiyalash ta'lim tizimining asosiy vazifasidir.

Bu kabi vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda o'quvchilar qalbi va ongiga ertangi kunga ishonch tuyg'ularini, ajdodlarimizning bizgacha yetib kelgan asriy an'analari, urf-odatlarini va milliy qadriyatlarini yanada chuqurroq singdirish lozim.

Yoshlarning yuksak ma'naviyatli shaxs bo'lib kamolga yetishishida kitobxonlik madaniyatining o'rni benihoya katta.

Ta'lim-tarbiya ishlarini takomillashtirish, uni jahon andozalari darajasiga ko'tarish, fan sohasidagi yangiliklarni amaliy hayotga tatbiq etish muhim masalalardan biri bo'lib

qolmoqda. Ayniqsa, yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish, ularda fan asoslariga nisbatan bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan hisoblanadi.

Kitobxonlar uchun konkret narsani obrazli fikrlash xarakterlidir. O'qish davomida shu obrazli fikrlash orqali ularning tushunchalari o'sib boradi. Bu yoshda bolani kitobning yozilishi masalaning qo'yilishi emas, kitobdagi obraz, voqea va hodisa qiziqtiradi.

Zamonaviy texnologiyadan foydalanish: ota-ona farzandining kitob o'qishini istaydi, u esa kompyuter o'yinini xohlaydi. Nima qilish kerak? Kitob mutolaasini ana shu jarayonga yaqinlashtirish, ya'ni zamonaviy texnologiyalardan foydalanish lozim. Ota-onalar internetda ko'plab bepul elektron kitoblar topishi va kompyuter yoki planshetdan foydalangan holda elektron kitoblardan o'qib berishi mumkin. Ularni onlayn o'qish yoki yuklab olish ham mumkin. Ba'zi elektron kitoblarning qog'oz nusxasiga nisbatan imkoniyatlari keng. Masalan, audio va video tasvirlar bilan boyitilganligi ularning imkoniyat darjasini yanada oshiradi. Bu esa, bolalarni qiziqtirishi aniq.

Mutolaa burchagini tashkil qilish: bolalarni chalg'itmaydigan, tashqi shovqin-surondan holi bo'lgan, mo'jazgina “uycha” yoki burchak qilib berish bilan ularning kitobga bo'lgan qiziqishini yanada oshirishi mumkin.

Bolalarni tez-tez kutubxonaga olib borish: ota-onalar farzandining doimiy ravishda kitob o'qish ko'nikmasini shakllantirishni istasalar, haftasiga hech bo'lmaganda bir marta kutubxonaga olib borishlari lozim. Chunki kutubxonada bola turli xil kitoblarni ko'radi va uning kitobga bo'lgan qiziqishi tobora ortadi.

Kitoblarni tez-tez suhbat mavzusiga aylantirish: agar ota-onalar bolalarini kitob o'qishga g'ayratini oshirmoqchi bo'lsalar, tez-tez ertaklar, hikoyalar aytib berib, umuman kitoblarning mazmun-mohiyati haqida suhbatlashib turishi kerak. Hayotda sodir bo'lgan haqiqiy voqealarni



HILOLA RAXMONOVA,
“KUTUBXONA-AXBOROT
FAOLIYATI” SIRTQI TA'LIM
YO'NALISHI 3-BOSQICH TALABASI

bolalar o'qigan ertak va hikoyalar bilan bog'lashga harakat qilish lozim. Bu esa bolalarni nafaqat o'qishga chorlaydi, balki mushohada qilishga o'rgatadi, tahlil qilish qobiliyatini shakllantiradi.

Bolalarga namuna bo'lish: farzand uchun ota-ona ibrat ko'zgidir. Agar ota-onalar muntazam kitob mutolaa qilsalar, kitobdan zavq olganlarini ko'rsatib, vaqtni ayamasdan, farzandlariga har kuni kitob o'qib bersalar, bu o'z navbatida bolalar ongiga, psixologiyasiga ta'sir qiladi. Natijada kitob o'qish asta-sekin bolalarning ham sevimli mashg'ulotiga aylanib boradi.

Ovozli o'qish va so'zlab berish bolani kitobga jalb qilishning tabiiy usuli bo'lib, undan oilada ham keng foydalaniladi. Ovozli o'qish va so'zlab berish maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda muhim o'rin egallaydi. Ular ham o'qish texnikasini yaxshi egallamagan bo'ladilar. Shuning uchun bu yoshdagi bolalar birinchi-ikkinchi yilda o'qishga qiynalishlari sababli o'qishdan ko'ra eshitishni yaxshi ko'radilar. Bundan tashqari, bolalar o'qishgagina emas, diqqat bilan eshitishga ham, eshitganlarini o'zlashtirishga va aytib berishga ham o'rganishlari lozim.

Xulosa qilib aytganda, bolalarni kitobxonlikka, kitob o'qishga qiziqtirishda psixologiyaning o'rni beqiyosdir. Chunki psixologiyaning qator metodlari orqali bolalarning kitobxonlik ko'nikmalarini shakllantirishning samaradorligi turli tajriba va tadqiqot ishlari tomonidan aniqlangan.

Zomin ilhomlari

Bugun shiddat bilan o'zgarayotgan dunyo barchani hayratga solmoqda. Yangi innovatsiyalar, kashfiyotlar, sun'iy intellekt ham shular jumlasidan. Biz o'zbek yoshlari bu yo'lda og'ishmay, qunt bilan ilm olsak, hayotga kengrog' tadbiq etsak yuksalamiz. Tan olib aytish kerakki, bu so'zlar qanchalik balandparvoz bo'lmasin, chinakam haqiqatdir.

IZZATILLO OLIMOV,
“KUTUBXONA-AXBOROT FAOLIYATI”
TA'LIM YO'NALISHI 3-BOSQICH TALABASI

Jamiyatimizda yoshlarga e'tibor, ularni qo'llab-quvvatlash so'nggi yillarda ancha ko'zga ko'rindi. Ayniqsa, ta'lim-tarbiya, intellektual ijodkorlikka e'tibor yuksak darajada. Shaxsan o'zim misolimda aytadigan bo'lsam, joriy yilning 3-5-iyul kunlari Respublika yosh ijodkorlarining “Nasr” yo'nalishi, an'anaviy Zomin seminarida qatnashishga muvaffaq bo'ldim. Jarayonlar judayam qizg'in bo'ldi. Bu yilgi seminarida 100 nafardan ziyod yoshlar qatnashib, respublikamizning turli hududlaridan jam bo'lganlar. Barchasi iste'dodli, umidli, shijoatli ijodkorlar.

Bunday anjumanlarning iste'dodlarni kashf etishdagi ahamiyati juda katta. Chunki bu kabi uchrashuvlar yoshlarning ijod olamiga kirishida, o'z o'rnini topishida katta yordam beradi. Meni hayratga solgan narsa shu bo'ldiki, barcha yo'nalishlarda: nasr, nazm, publiksistika, tarjimonlik barchasida yosh ijodkor do'stlarimizning botiniy

kechinmalari ochib berilgandir. Shu sababdan, hamma tengdoshlarimizga san'atni, ma'rifatni suydigan, otashin qalbga ega bo'lg'usi shoir, yozuvchi, tarjimonlar bo'lishiga katta umid bog'laymiz.

Har bir ijodkorning o'z orzusi bo'lgani kabi, mening orzuyim millat adabiyotini jahon sahnasiga olib chiqish, ravnaq topishiga o'z hissamni qo'shishdir. Esda qolarli sayohat, ustozlarning mahorat darslari, go'zal atmosferaga ega Zomin sharsharalari hamon yodimda. Ijod – tushunchasini qayta kashf qildim, men hikoya deb ataydigan mashqlarimni esa, hali yaxshigina chig'iridan otkazish lozimligini, qayta ishlamoq kerakligini tushundim...

Insonning hayotida shunday kunlar bo'ladiki, qaniydi yana qaytib kelsa, - deb orzu qiladi. O'tgan uch kun ham hayotimdagi xuddi shunday tarix bo'ldi, desam mubolag'a bo'lmaydi. Bir zamonda yashab, tengqur ijodkorlarni bir-biriga tanitish, shu davr mobaynida bir katta oila bo'lib yashash tuyg'usini his qilar ekan kishi. Doim ismini eshitib, asarlarini o'qib yurgan, ammo o'zini hech hayotda ko'rmagan ijodkorlarni uchratdim. Talaygina chiroyli taassurotlar bilan uyga qaytdim.



Ko'rgazma

HASAN ABDUNAZAROV

Mo'ynoq
kecha, bugun, ertaga...

Toshkent fotosuratlar uyida tashkil qilingan "Mo'ynoq: kecha, bugun, ertaga" deb nomlangan ko'rgazmada Orol dengizining hozirda qurib, sho'r bosgan xududidan olingan professional fotograflarning shuningdek, O'zbekiston milliy axborot

agentligi fotomuxbirlari orolbo'yi shaharlaridagi bugungi tiklanishlar haqida hikoya qiluvchi fotolavhalar hamda Mo'ynoq tumanidagi aholiga ichimlik suvi o'tkazib berish, maktabgacha ta'lim muassasasi binosining ochilishi marosimlari

to'g'risidagi fotolavhalar o'rin olgan. Fotosuratlarda Orol dengizining xududi va ekoturizmni rivojlantirish bo'yicha tashkil qilingan o'tovlar kempingidan olingan turli ko'rinishlar o'z aksini topgan.

Tasviriyy san'at, dizayn va
fotosuratlar

Toshkent fotosuratlar uyida O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz uch yilligiga bag'ishlangan "Eng ulug', eng aziz" shiori ostida ko'rik tanlovining tasviriyy san'at, foto va dizayn ishlari yo'nalishi bo'yicha, ijod namunalari tashkil topgan ko'rgazma ochildi. Namoyish qilish uchun taqdim etilgan ushbu ijodiy ishlarda mamlakatimizning go'zal tabiati manzaralari, yil fasllari, Yangi O'zbekistonning madaniyati, iqtisodi, bunyodkorlik, sportdagi muvaffaqiyatlarimiz, urf-odatlarimiz, hayot falsafasi, inson portretlari aks etgan.

Ko'rgazma ochilishidagi tashkil qilingan davra suhbatida so'zga chiqqan ijodkorlar, tasviriyy san'at fotosuratlar, kitoblar, matbuotning hayotimizdagi ahamiyati va san'at vakillarining vazifalari haqida fikr yuritdilar.

Asar haqida

Assalomu alaykum qadrdonlarim, kitobsevar do'stlarim sog'-omonmisiz? Sizlar bilan ajoyib, qiziqarli asarlar haqida gaplashib turadigan kutubxonachingiz yana bir asar bilan sizlarni yaqindan tanishtirmoqchi.



IZTIROB

M.RAXIMOVA,
AXBOROT BIBLIOGRAFIYA XIZMATI RAHBARI

Asar muallifi mashhur turk yozuvchi, ko'plab asarlari bilan qalbimizdan joy olgan, hayot sinovlariga bardosh bera olgan timsollari bilan mushohada qilishga o'rgatadigan, sabr qilib, to'g'ri yo'lni ko'rsatishga chorlab qoluvchi Rashod Nuri Guntekinning "Iztirob" asari haqidagi fikrlarimni aytmoqchiman. Bu kitob juda kam sahifalardan iborat bo'lib, uni tezda o'qib chiqishingiz mumkin. Asarni o'qiy boshlaganimda juda zerikdim. Ammo uch-to'rt varoqdan so'ng o'qishni to'xtatib qo'ydim. Bir oz vaqt o'tib, asar qahramoni maktab direktori Zehra o'ta sovuqqon, o'quvchilariga nisbatan qattiqqo'l ustoz, o'zi haq deb bilgan yo'ldan qaytmaydigan, jamiyatda katta obro'-e'tiborga loyiq ayolni iztirobi nima ekan, deb kitobni qayta o'qiy boshladim.

O'qib chiqqanimdan so'ng afsuslanmadim, Insonlarning ichki dunyosini bilmay turib, ularga ta'rif berishga haqqim yo'q ekanligini tushundim. Zehra otasi Murshid afandini juda ham sog'ingani haqida o'ylar ekanman, uning iztirobi nimadan ekanligini angladim. Onasi va buvisi nima uchun bunday yo'l tutgan, boshqa bolalar kabi ularni hayotida otasining o'rni, qadr-qimmat, hurmati va eng yaqin qondoshlik belgilari va tuyg'ularini so'ndirgan ayollar haqida otasidan qolgan eski sandiqdagi kundalik orqali bilib olishi, otasi haqidagi fikrlarini mutloqo o'zgartirib yuboradi. Asar tarbiyaviy jihatdan juda ham ahamiyatli, deb hisoblayman. Jamiyatda o'z o'rini topmoqchi bo'lgan bir oliyjanob insonni, o'zlarining nafs qurboniga aylantirishi ayanchli holatdir. Ushbu asarni albatta o'qing!

Hech shubhasiz, Rashod Nuri Guntekinning barcha asarlarini o'qib chiqishni tavsiya qila olaman. Zero, o'z millatining, xalqining taqdiri haqida ochiq-oydin yoza olgan, hayotning turfa to'fonlariga munosib turib javob bera olgan qahramonlarni yaratgan yozuvchining asarlari sizni befarq qold irmaydi.

Mitti hikoya

OZODA SHOBILOLOVA,
TEATRSHUNOS

TABIAT

O'shanda meni tongda qushlar uyg'otar edi. Yo'q, tong oqarmasdan qushlarning navosi boshlanardi. Har tong qushlardan biri "chir-r" etardi-yu, ortidan "hamsoya"lari bir-biridan o'tay, deb chug'urlashib ketardi. Qushlarning chug'ur-chug'uridan e'tiboran uyimizda hayot boshlanardi.

Bahorda meva daraxtlar gullaganda, hovli ariga to'lib ketardi. Gullagan daraxt atrofida aylanishgan bolari, qovog'arilarning chaqib olishidan qo'rqardim. Tomorqadagi rango-rang gullar ustida uchib-qo'nayotgan go'zal kapalaklarni quvib yetolmasdim. Kapalaklar bilan o'ynashib, vaqt peshinga og'ganini sezmay ham qolardim.

Ko'chamizdagi kichik ariqda tizza bo'yi suv oqardi. Bir ko'cha bola shu ariqda suv kechib o'ynardik. Mahalladagi kelinlar esa shu ariqdan

ko'cha-hovliga suv separd. Suvning serobligini aytaman-da... Bahor va kuz fasllarida yog'ingarchilik mo'l-ko'l bo'lganidan, otam menga qizil rangli rezina etik olib bergandi. Yomg'ir yog'sa shu etikni kiyib maktabga borardim. O'rtoqlarimning etigimga rosayam havasi kelardi.

Bolaligimda qish faslini yaxshi ko'rardim (hozir esa aksi). Qor yoqqan kuni boshqa bolalar kabi ko'chadan uyga kiray demasdim. Qorbobo yasab, chang'i uchib, qorga dumalab belimgacha shalabbo bo'lib ketsam ham o'yinga to'ymasdim. Axiri onam burnimdan tortib, qulog'imdan cho'zib uyga olib kirardi. Uyga kirardim-u, yana ertaga ko'chaga otilib chiqish payida turardim. Ko'cha tizza

bo'yi qor-da... Men o'ynamasam, kim o'ynaydi u qorda.

Hozir o'ylab qolaman. Qani o'sha chug'urchuq budiinik qushlar? Qani gullagan meva daraxtlarni talayotgan arilar? Qani gul vasliga oshiqayotgan shoshqaloq kapalaklar? Qani ariqlardan to'lib-toshib oqayotgan zilol suv? Qani ezma yomg'ir, qani erinmagan elanma qor? Qiziq, borgan sari kamnamolashib ketyapti tabiatning bu mo'jizalari, bu ajoyibotlari...

Men ham ko'hna odam emasman. Bolalik davrim to'qsoninchi yillarga to'g'ri keladi. Farzandlarimga qarab turib: tabiatning qaysi fazilatlaridan zavqlanar ekan bular, deb o'ylab qolaman...



Muassis:

O'zbekiston davlat san'at va
madaniyat instituti

Tahrir hay'ati:

Hamdam ISMOILOV,
Oybek DAVLATOV

Muharrir:

Dilnoza QURBONOVA

Sahifalovchi:

Abdug'ani SODIQOV

Tahririyat manzili: 100164 Toshkent shahri,

Mirzo Ulug'bek tumani,
Yalang'och mavzesi, 127 A uy.

Telefon: (71) 230-28-03.

(71) 230-28-13.

www.dsmi.uz;
nashriyot@dsmi.uz

O'lchami – A3, hajmi 4 bosma taboq.

Gazeta 4.09.2024-yilda topshirildi.

Gazeta Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasida № 02-00166
raqami bilan 2012-yil 19-dekabrda ro'yxatga olingan.

Gazeta elektron ko'rinishda havola etilmoqda

Bosh muharrir

Baxtiyor YAKUBOV